

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI TARJIMA QILISH USULLARI

Negova Begoyim Begmurod qizi

SamDChTI Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti

Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) yo‘nalishi

2-bosqich 2402-guruh talabasi

begoyimnegova3@gmail.com

+998918309091

Ilmiy rahbar

Sobirova Nasiba

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti

assistent o‘qituvchisi

Annotatsiya. Har bir tilning o‘ziga xos shunday so‘z va iboralari borki, ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushunishda qiyinchiliklarga duch kelinadi. Biz nutqimizni yoki matnimizni chiroyli, rang-barang hamda mazmunli bo‘lishi uchun ushbu frazeologik birikmalardan foydalanamiz. Ushbu maqolada ingliz tilidan o‘zbek tiliga iboralarni tarjima qilishda foydalaniladigan tarjima qilish usullari bayon qilinib, ularni ingliz tilidan tarjima qilishning eng maqbul va to‘g‘ri tarjima usullari taklif qilindi.

Kalit so‘zlar: frazeologik birlik, ekvivalentlik, dinamik va formal ekvivalentlik, analog tarjima, madaniyatshunoslik.

KIRISH.

Har bir ibora va maqollar asrlar davomida o‘z jamiyatining uzoq yillik tajribalari asosidagi hayot sinovlari sababli o‘zining tarbiyaviy va shakliy jihatdan yaxlitligiga egadir. Shu boisdan, zamonaviy dunyoda, tillararo muloqotlar rivojlanayotgan davrda, maqol va iboralarning milliy-madaniy ruhini tushunish va ularni to‘g‘ri tarjima qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Bir tildagi iboralarni boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida ularning ma‘nosi, madaniy va lingvistik xususiyatlarini tushunishga yordam beradigan tilning birliklari e‘tiborga olinadi.

Frazeologik birliklar tilning leksik, lingvistik va semantik xususiyatlarini saqlab qolishda katta ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli faqat ibora va maqollargina o‘ziga xos ma‘no va o‘ziga xos buzilmas frazeologik tuzilishga ega. Ingliz tilidagi ko‘pgina iboralar hazil va kinoyani o‘z ichiga olgan. Shu sababli, semantik birlikni ta‘minlab, o‘zbek o‘quvchilariga to‘liq yetkazib berish masalasi ham murakkabdir. Shunga o‘xshash bir qator kamchiliklar hisobga olinmasa, matnning badiiyligi yo‘qolib, tarjima sifatini pasaytirishi mumkin.

Frazeologik birliklarni tarjima qilishda bir nechta tarjima usullari mavjud bo‘lib, ulardan birinchisi ekvivalent topish usuli hisoblanadi. Ekvivalent tushunchasi tarjimada Nida tomonidan o‘rganilgan. Nida ekvivalentlik tushunchasini formal va dinamik turlarga bo‘lgan, “formal ekvivalentlik manba, matn shakliga e‘tibor qaratsa, dinamik ekvivalentlik maqsad auditoriyasining reaksiyasini hisobga oladi” [Nida, 1969, 155 b].

Quyida 2 ta idiomaning ham formal ekvivalentlik, ham dinamik ekvivalentlik asnosidagi tarjimalari keltiriladi va eng maqbul tarjima usullari taklif qilinadi:

Able to fog a mirror (fig) [Yusupov. 2014. 2-b]

Formal ekvivalentlik: oynani parlay olmoq, oynani tumanlashtirmoq.

Dinamik ekvivalentlik: oyoqda tura olmoq, bardosh bera olmoq.

Ushbu tarjimalar orasidan dinamik ekvivalentlik usuli frazeologik ibora ma‘nosini aniq va tushunarli qilib o‘quvchiga yetkazib beradi.

Look not a gift horse in the mouth.

Formal ekvivalentlik: og‘zidagi sovg‘a otga qarama.

Dinamik ekvivalentlik: berganning betiga qarama.

Bu misoldagi ikki tarjima usuli ham ma’noga ega bo‘lsa-da, formal tarjima o‘zbek tilidagi stilistik qoidalarga mos kelmasligi sababli ba’zi o‘quvchilarga ma’no anglashilmasligi yoki noto‘g‘ri tushunchaga olib kelishligi sababli dinamik ekvivalentlik eng maqbul usul hisoblanadi.

Bundan tashqari tarjimada yuzaga keladigan bir nechta muammolarga yechim sifatida tarjimonlarga eng ommaviy usullar taklif qilinadi. Bu yechimlar so‘zma-so‘z tarjima, analog tarjima va tasviriyl tarjima usullarini o‘z ichiga oladi:

So‘zma-so‘z tarjimada iboradagi har bir so‘z alohida, ya’ni ularning leksik va grammatik ma’nosini saqlagan holda, tarjima qilinadi.

Analog tarjimada esa frazeologik birikmaning o‘zbek tilidagi ma’nosiga mos muqobil varianti olinadi.

Tasviriyl tarjimada ibora va maqollarning ma’nosi tushuntirilib, mazmuni izoh bilan ifodalanadi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning o‘zbek tilidagi tarjimasi murakkab jarayon bo‘lib, tarjimonlardan ikki tilning dunyoqarashini chuqur bilish mahorati talab qilinadi. Ijodkorlik, moslashuvchanlik mahorati bo‘lgan tarjimonlar mahoratli tarjima qilib, tildagi o‘git va hazil-mutoyibani saqlagan holda o‘quvchiga yetkazib bera oladi.

Qisqartmalar:

Fig (ko‘chma ma’no)

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yusupov L. Inglizcha-o‘zbekcha idiomalar lug‘ati. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2014. – 206 b.
2. Newmark P. A textbook of translation. “Prentice hall”. 1988. – 306 p.
3. Nida E. Toward a science of translating. Leiden. E. J. Brill. 1969. – 483 b.
4. Муминов Н. Таржима назарияси асослари. “Тафаккур бустони”. 2012. – 215 б.
5. <https://share.google/KOHvkA3CBeG5qhCn8>